| Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarining o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari | 855 |
| Otajonova Maftuna Sultonmurodovna , tayanch doktorant | |
| Kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish | 859 |
| Ustadjalilova Xurshida Aliyevna , p. f. n. | |
| Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida | 863 |
| Sheraliyeva Saida Azatovna , katta o'qituvchi | |
| Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi | 868 |
| Mansurov Saidxo'ja Kamalovich , tayanch doktorant | |
| O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari | 875 |
| Abdusheerov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions | 879 |
| Ergasheva Malikakhon , Independent researcher | |
| Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida | 884 |
| Amanov Otabek Amankulovich | |
| Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida | 888 |
| Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li , tayanch doktorant | |
| Nodavlat notijoart tashkilotlarida maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish | 893 |
| Ne'matov Oybek Ismatullayevich , PhD | |
| Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish | 897 |
| Saidaxmedova Nodira Iloxomova , DSc | |
| Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования | 902 |
| Bokhodir Isroilov , Doctor of Economics, Boburshokh Ibragimov , PhD | |
| Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili | 909 |
| Raximova Shaxlo Rajapboyevna , mustaqil tadqiqotchi | |
| Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati | 915 |
| Xo'jaqulova Nigora Rustamovna , PhD | |
| Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish | 922 |
| Maxmudov Anvarjon Maxmudovich , mustaqil izlanuvchi | |
| O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili | 930 |
| Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich , dotsent | |
| Семья и ее роль в воспитании молодежи | 935 |
| Зайналов Жахонгир Расулович , профессор, Бердикулов Журабек , ассистент | |
| Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, audit va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar | 938 |
| Nosirov Ilhom Abbosovich , i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний .. | 943 |
| Холмирзаева Феруза Абдуллаевна | |



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI QO'LLASH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Saidaxmedova Nodira Ilxamovna
DsC, Nizomiy Davlat pedagogika universiteti,
kafedra mudiri, dotsent



Annotatsiya: Dunyo iqtisodiyotining shiddatli rivojlanishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda yangi marketing usullaridan keng foydalanishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan biznes subyektlari faoliyatida marketing strategiyalaridan samarali foydalanish hamda biznesni yuritishning barcha jabhasida uni qo'llash hamda samaradorligini oshirish dolazarb ahamiyat kasb etadi. Maqolada kichik biznes subyektlarida marketing strategiyalarining bugungi kundagi ahamiyati va innovatsion marketing strategiyalariga qaratilgan ilmiy amaliy tahlil va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, marketing, marketing strategiyasi, innovatsion marketing, raqamli texnologiyalar, marketing dasturi, xizmatlar bozori, ist'emol bozori, marketing tadqiqotlari.

Abstract: The rapid development of the world economy requires the widespread use of new marketing methods in the production of competitive products. The effective use of marketing strategy in the activities of business entities operating in the economy of the Republic of Uzbekistan, its application in all aspects of doing business and increasing its efficiency is becoming increasingly important. The article presents scientific and practical analysis and conclusions on the importance of marketing strategy in small businesses today, foreign experience and innovative marketing strategies.

Key words: Small business, marketing, marketing strategy, innovative marketing, digital technologies, marketing program, services market, consumer market, marketing research.

Аннотация: Стремительное развитие мировой экономики требует широкого использования новых методов маркетинга при производстве конкурентоспособной продукции. Все большее значение приобретает эффективное использование маркетинговой стратегии в деятельности субъектов хозяйствования, осуществляющих деятельность в экономике Республики Узбекистан, ее применение во всех аспектах ведения бизнеса и повышение его эффективности. В статье представлены научно-практический анализ и выводы, ориентированные на сегодняшнюю значимость маркетинговых стратегий субъектов малого бизнеса и инновационных маркетинговых стратегий.

Ключевые слова: Малый бизнес, маркетинг, маркетинговая стратегия, инновационный маркетинг, цифровые технологии, маркетинговое программное обеспечение, рынок услуг, потребительский рынок, маркетинговые исследования.

KIRISH

Keyingi paytlarda jahon mamlakatlarida yuz berayotgan ziddiyatli holatlar qator davlatlarning iqtisodiy jihatdan tanglik holatlarini keltirib chiqarmoqda. Jahon iqtisodiyotining global pandemiya davrida qoldirgan asoratlarni barham topayotgan bir pallada bunday vaziyatning kelib chiqishi dunyo iqtisodiy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, dunyo iqtisodiyotida global iqtisodiy o'sish 2023-yilda 1,7 foizgacha sekinlashishi prognoz qilinmoqda, bu so'nggi 30 yildagi eng sekin ko'rsatkichlardan biri bo'lib, faqat 2009 va 2020-yillardagi global inqiroz davrida ortda qolmoqda. Ushbu pasayish qisman yuqori inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun monetar siyosatning qattiqlashishi bilan bog'liq bo'lib, bu inflyatsiyaning o'sishi, pul kursining keskinlashuvi yoki moliyaviy tartibsizliklar kabi salbiy zarbalar global iqtisodiyotni tanazzulga olib kelishi mumkin. Bunday global inqiroz va qarz inqirozi xavfini kamaytirish uchun shoshilinch choralar ko'rish kerak. Bundan tashqari, hukumatlar aholining zaif qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatilishini, inflyatsiya kutilmalari barqaror bo'lishini va moliyaviy tizimlarning barqarorligini ta'minlashi kerak¹.

1 Второй год резкого замедления темпов роста. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/global-economic-prospects>.



Mana shunday bir davrda mamlakatimizda aholi turmush farovonligini va uning bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda tadbirkorlik, jumladan, iqtisodimizning lokal tarmoqlaridan bir sanalgan kichik biznes subyektlari faoliyatining rivojlanganlik darajasi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlik, keng ma'noda, shaxsiy manfaatga asoslangan, subyekt oldida turgan maqsadga erishishga qaratilgan, uning bevosita ishtirokida o'zining shaxsiy omillariga asoslanib, amalga oshiriladigan, oila xo'jaligini yuritishdan tortib, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hamda xizmatlar ko'rsatishgacha bo'lgan yumushlar bilan bog'liq aqliy faoliyat sifatida qaraladi. Tor ma'noda, tadbirkorlik faoliyati faqat iqtisodiy sohaning turli-tuman darajalaridagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni sohibkorlikni ifodalaydi².

Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2022-yil 7-iyundagi xizmatlar sohasidagi natijalar tahliliga bag'ishlangan yig'ilishida: "...kichik biznes subyektlari – kam xarajat bilan ko'p aholi-ning bandligini ta'minlash bo'ladigan soha. Shu bois hududlarda maishiy xizmat uylari tashkil etilmoqda, ishsizlar kasb-hunarga o'rgatilmoqda, mablag' va sharoit bilan ta'minlanmoqda. Xizmatlar sohasining rivojlanishi kichik biznes subyektlarining shakllanishi va undan so'ng bozorga yangi korxonalarning kirib kelishini ta'minlaydi"³, – deb ta'kidlab o'tganlar. Ayniqsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga kirib borishi, davlat va xususiy sherikchilik munosabatlarining rivojlanishi biznes subyektlarida olib borilayotgan marketing faoliyatida innovatsion marketing texnologiyalari: internet marketing, one-to-one (munosabatlar) marketingi, benchmarking, mobil marketing, to'g'ridan-to'g'ri marketing yo'nalish va shakllarini rivojlantirish, korxona va xaridorlar aloqalarini o'zaro online tarzda tashkil etish, marketing tadqiqotlarini olib borish, yetakchi korxonalar faoliyati natijalarini o'z korxonasiga joriy etish, tovar va xizmatlarni siljitishda interaktiv marketing strategiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylagnib bormoqda. Shu boisdan, o'zgarib borayotgan iqtisodiyot va kuchli raqobatbardoshlik davrida kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasidan unumli foydalanish muhim mezon sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'rganilgan va olib borilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, marketing strategiyasining iqtisodiy mazmuniga bo'lgan ko'plab xorijlik va maxalliy iqtisodchi olimlar yondashuvida aniq bir to'laqonli ta'rif kuzatilmagan. Jumladan, Xorijlik iqtisodchi olimlardan F. Kotler: "Marketing strategiyasi ayirboshlash orqali zarurat va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan inson faoliyatining aniq maqsadga qaratilgan bir turidir", – deb ta'rif bergan⁴. Yana bir xorijlik iqtisodchi olim Jan Jak Lamben: "Marketing strategiyasi – tashkilotlar va kishilarning xohish va ehtiyojini tovarlar va xizmatlarni erkin raqobatli ayirboshlashni ta'minlash yo'li orqali qondirishga yo'naltirilgan ijtimoiy jarayonlar yig'indisi. Marketing strategiyasi bir vaqtning o'zida biznes falsafasi va faol jarayondir", – deb ko'rsatib o'tadi⁵. Shuningdek, MDH iqtisodchi olimlarning bir guruxi – V. V. Jivetin, V. L. Samoxvalov, N. P. Chernov, I. A. Feraponovalar marketing strategiyasi samaradorligini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqarish va sotish faoliyatini takomillashtirish natijalaridan iborat, deb hisoblashadi: bozor potensialidan, shu jumladan, yangi mahsulot uchun maqbul foydalanish imkoniyati; prognoz taxminlarining ishonchligini oshirish; ma'lum bir mahsulot uchun bozor segmentini izlab topish; bozor muvozanatini (talab va taklif tengligini) tahlil qilishning to'g'ri variantini oshirish va hokazolar⁶. Yana bir MDHlik bir gurux iqtisodchilar G. A. Avanesova, L. P. Voronkova, V. I. Maslov, A. I. Frolovlar hammuallifligida nashr qilingan "Turizm, gostepriimstvo, servis" nomli kitobda: "Marketing strategiyasi bajaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik natijasi, shu bilan birga, mijozlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan bajaruvchining shaxsiy faoliyatidir", – deb ko'rsatiladi⁷.

Bizning fikrimizcha, nafaqat iqtisodiy amaliyot va adabiyotlarda, balki odam faoliyatining turli sohalarida ham juda ko'p qo'llaniladigan "strategiya" tushunchasini rossiyalik iqtisodchi-olim I. N. Mavrina ancha keng va yaxshi ta'riflab bergandir: "Strategiya – bu asosiy maqsadga erishi uchun ustivor muammolar va resurslarni belgilab beruvchi harakatlarning bosh dasturidir. U asosiy maqsadlarni va ularga erishishning asosiy yo'llarini shunday shakllantirib beradiki, bunda firma harakatlanishning yagona yo'nalishiga ega bo'ladi"⁸. Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida "strategiya" tushunchasining yana boshqa ko'plab ta'riflari ham mavjuddir. Agarda firma rivojlanishini uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, shuningdek, tashqi muhit tahdidlari va imkoniyatlarini hisobga olish kontekstida, ya'ni, bugungi kunlarda qabul qilingan strategik tahlil usullari va metodlari prizmasi orqali olib qarash lozim bo'ladigan bo'lsa, u holda D. V. Gergertning ta'rifi ancha o'rinli bo'ladi: "Strategiya – bu

2 G'ulomov S. S. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: 1996. – 130 b.

3 <https://president.uz/uz/lists/view/5252>

4 Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: Прогресс, 1991. С. 47

5 Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. – СПб.: Наука, 2009. С. 17.

6 5. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/download/489/461>

7 Аванесова Г.А., Воронкова Л.П., Маслов В.И., Фролов А.И. Туризм, гостеприимство, сервис. Словарь-справочник. Под ред. Л.П.Воронковой. – М.: Аспект Пресс, 2002. – 367 с.

8 Маврина И.Н. Стратегический менеджмент: учеб.пособие / И.Н. Маврина. – Екатеринбург: УрФУ, 2014. – С. 132.



tashkilotga o'z xo'jalik faoliyati natijalarini yaxshilash imkonini beruvchi resurslarni joylashtirish modelidir"⁹. U o'z fikrini davom ettirib, "Xavf-xatarlarni bartaraf etadigan yaxshi strategiya – bu o'zining kuchli tomonlaridan foydalanib va kuchsiz tomonlarini mustahkamlashga tayanib, bozor imkoniyatlaridan foydalanadigan strategiyadir" deb ta'kidlab o'tadi.

Mahalliy olimlarimiz Sh. D. Ergashxodjayevaning "Innovatsion marketing" nomli darsligida korxonada marketing xizmatlarini takomillashtirish zarurligining muhim sababi ijtimoiy ehtiyojlar tizimida tarkibiy o'zgarish hisoblanishi, texnologiyalar, ishlab chiqarish tuzilmasi, aholining turmush darajasi va uning ijtimoiy faolligining oshishi, shuningdek, ta'lim va madaniy darajasining oshishi asosi sifatida ta'kidlangan¹⁰.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, kichik biznes subyektlarida zamonaviy marketing strategiyasini tatbiq etish, aholining zarur kerakli tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keltirilgan mahalliy va xorijiy mualliflarning asarlarini tahlil qilib, marketing strategiyasining quyidagi asosiy komponentlarini ajratish mumkin:

- qo'yilgan marketing maqsadlarini asoslab berish maqsadida korxonaning tashqi va ichki muhitini tahlil qilish;
- marketing dasturini shakllantirish;
- korxonaning raqobatchilik ustunligini ta'minlash;
- qo'yilgan marketing maqsadlariga erishish uchun resurslarni taqsimlash;
- qo'yilgan marketing maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan marketing uchun xarajatlar darajasi;
- raqobat darajasi va xizmatlarining muqobil turlarini tahlil qilish;
- xizmatlar bozorining yangi segmentlarini diversifikatsiyalash va o'zlashtirishni tashkil qilish;
- xizmatlar sifatini yaxshilash va integratsiyalashgan boshqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- raqamli vositalardan foydalanish istiqbollarini rejalashtirish.

Marketing strategiyasi iste'mol bozoridagi shaxsiy ishbilarmonlik munasabatlari bilan o'xshash qaraladi. Iste'mol bozorida marketing sotish bo'yicha menejerlar, sotish bo'limi xodimlari, reklama va siljitish bo'yicha menejerlar, tahlilchilar, mijozlar bilan ishlovchi menejerlar, tovarlarni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha menejerlar, savdo markasi menejerlari, marketing bo'yicha korxona vitse-prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. Ularning har biri oldiga vazifa qo'yilgan va javobgarlik darajasi aniqlangan, ko'pchilik xodimlarning mansab vazifalari reklama va marketing tadqiqotlari singari maxsus marketing resurslarini boshqarishni o'z ichiga oladi va aksincha, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha menejerlar va marketing bo'yicha vitse-prezidentlar esa dasturlarni boshqarishadi. Ularning vazifasi transaksiyalar (ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi qimmatbaho tovarlarni ayirboshlash)ning ko'zda tutilgan hajmiy va daromadli darajasiga erishish uchun dasturlarni tahlil qilish, rejalashtirish va amalga oshirishdan iboratdir. Marketing strategiyasi talab darajasi, vaqtinchalik chegaralari va tuzilmasiga ta'sir etish vazifasini hal etishga qaratilgan bo'lib, bunda tashkilot qo'yilgan maqsadga erishishi lozim. Funksional strategiyalar tashkilotning moliya, marketing, ishlab chiqarish, inson resurslarini boshqarish, ilmiy tadqiqot ishlari kabi funksional doiralarda faoliyatlar yo'nalishini aniqlaydi. Ularning vazifasi-maksimal samarali ravishda korporativ va biznes darajasidagi belgilangan vazifalarni xal etishni ta'minlashdir. Ularning korporativ va biznes strategiyalardan asosiy farqi uning korxona ichi yo'nalishidir. Marketing strategiyasi, korxona ichi menejmenti strategiyasi, moliyaviy strategiya, tashkiliy strategiya, ishlab chiqarish strategiyasi va boshqalar – bularning barchasi korxonaning o'ziga nisbatan markazga intilish faoliyatiga ega. 1-jadval korporativ, biznes va funksional strategiyalarning strategik fokus, strategik muxit, strategik resurslari va tanlov tanqidlari jixadlaridan asosiy xarakteristikasi farqini aks ettiradi.

1-jadval: Strategiya turlarining qiyosiy xarakteristikasi¹¹

| | Korporativ strategiyalar | Biznes strategiyalar | Funksional strategiyalar |
|---------------------|-------------------------------|--|--|
| Strategik fokus | Kapital | Raqobatbardosh ustunliklar | Samaradorlik |
| Strategik soha | Korxona bir butunlik sifatida | Korxona biznesining startegik sohalari | Korxona ichki tashkil etilishi va jarayonlar |
| Strategik resurslar | Kapital | Ichki salohiyat | Tizim |
| Kriteriyalar | Kapital samaradorligi | Strategik holatlar | Daromadlilik |

9 Гергерт Д.В. Стратегический менеджмент: учеб.-метод. пособие / Д.В. Гергерт. — Пермь: Гос. ун-т «Высшая школа экономики». Пермский филиал, 2008. — С. 162

10 Ergashxodjaeva Sh.D. Innovatsion marketing. Dapslik. — T.: TDIU, Iqtisodiyot, 2014. — 178 bet.

11 file:///C:/Users/user/Downloads/strategiya-turlarining-iyosiy-harakteristikasi.pdf



Marketing strategiyasi doimo o'zgaruvchan bozor holati sharoitlarida tovarlar bo'yicha ishlab chiqilgan dasturning bajarilishi ustidan doimo kuzatish va tuzatish kiritilgan qarorlar qabul qilishni ko'zda tutadi. Marketing strategiyasining tarkibiy qismlari: maqsad tamoyillari, vazifalari, tashkiliy tuzilishi, usullari, boshqarishning texnika va texnologiyasi, kadrlar va shu kabilardan iborat. Marketing strategiyasi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash va o'z tovar va xizmatlar ko'rsatish darajasini maksimallashtirishdan iborat. Uning tashkiliy tuzilishining mezonlari va maqsadi deganda, marketingning tarkibiy tuzilishining dinamik barqarorligi, evolyutsiya o'zgarishlari va tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri tushuniladi. Bu maqsad marketing faoliyat ko'rsatayotgan sohalarida belgilangan darajadagi foyda olishga yo'naltirilgan barcha faoliyatni boshqarishdir. Ishlab chiqaruvchilarning maqsadga qaratilgan xulqi hammadan avval muammolarni qamrab oluvchi boshqaruv vazifalarida hamda bu muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan tadbirlarni rejalashtirish, tashkil qilish, o'tkazish va nazorat qilishda o'z aksini topadi. Shuning uchun korxona marketing faoliyati uchun quyidagi masalalar katta ahamiyatga ega:

- birinchidan, axborotlarni yig'ish va ishlab chiqish¹²;
- tashqi muhit haqidagi ma'lumotlar;
- ishlab chiqarish, moliya va boshqa xarakterdagi ichki cheklashlar haqidagi ma'lumotlar;
- atrof-muhitning turli xil sharoitlarida turli xil asboblarning ta'siri haqidagi ma'lumotlar;
- bozorga ta'sir qilish va xaridorlarda afzallik yaratishning mavjud imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar.

Bu axborotlar maqsadiy guruhni belgilash uchun zarur. "Bozorni segmentlash" nomini olgan bu jarayonning borishida statistik uslublar yordamida xaridorlarning geografik, biologik, ijtimoiy-demografik va ruhiy aloqalari tadqiq qilinadi. Bozor to'g'risidagi haqiqatni bilish tovarni yaratish va qulay sharoitlarda rejalashtirilgan miqdordagi tovarni sotishga erishish uchun uni sotish vaqtini tanlashga imkon beradi.

Buning uchun sotuvchi ixtiyorida mahsulotning quyidagi muammolari bo'ladi:

- mahsulot bilan ishlash, birinchi navbatda, uning xususiyatlari;
- mahsulot sifati;
- marka nomini tanlashlarini belgilash yoki o'zgartirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari bu yerga yana ishlab chiqarish dasturi va savdoda sifatni aniqlash, yangi mahsulotni rivojlantirish, mijozlarga texnik va savdo xizmatlarini ko'rsatish kiradi;
- narxlarning belgilanishi va o'zgarishi, narxlarning darajalanish imkoniyatlari, chegirmalar berishni o'z ichiga oluvchi narx-navo siyosati;
- taqsimlash-sotish tizimini yaratish, sotish narxlarini tanlash, sotish uslublarini qo'llash, yetkazib berishga tayyorlik haqidagi qarorni ishlab chiqish, korxonaning ko'lamini va joylashishini qamrab oladi;
- kommunikatsiya o'z ichiga reklama turlari elementlari, sotishni qo'llab-quvvatlashni oladi, ya'ni u xabardor qilingan va faollashtirilgan bo'lajak xaridorlarga ularni taklifning foydaliligiga ishonitirish va xarid qilishga undashga yo'naltirilgandir.

Korxonalarda marketing strategiyasi o'z ichiga marketing faoliyatini tashkil qilish masalalarini oladi. Shu nisa shubhasizki, korxona faqat barcha xizmatlar marketing predmetini tan olgandagina, izchil bozor siyosatini amalga oshira oladi. Mezonlar sifatida vazifalar, mahsulotlar, mijozlar guruhlari, xududiy sohalar qabul qilinishi mumkin. Mezonlarga muvofiq har turdagi tashkiliy tuzilmalar ko'riladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kichik biznes subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga davlat tomonidan turli imtiyozlar ajratish, faoliyat turini kengaytirish orqali korxonalarning innovatsion rivojlanishiga ko'maklashish lozim. Pivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, kichik biznes subyektlarining qanchalik darajada ko'pligi, raqobatbardoshligi aholi turmush farovonligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Korxonalarning rivojlanishi uchun esa albatta, marketing strategiyasi juda zarur. Marketing strategiyasi yordamida korxonaning raqobatbardoshligi oshadi, rivojlanadi, brend shakllanadi va iqtisodiy faol bo'ladi. Biznesning aloxida turi har doim daromad keltirib korxonaning barcha faoliyatlari natijasida daromadlar bilan aralashtirib bo'lmaydi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni ba'zilar, ba'zi xollarda bir birini takrorlashi va hatto qamrab

12 Мишин В. М., Управление качеством: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности "Менеджмент организации" (061100) – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2008. – 463 с. ISBN 978-5-238-00857-8



olishi ham mumkin, lekin bu ko'rsatkichlar barchasi biznes doirasini aniqlashda muhim. Zamonaviy biznesning murakkab sharoitida o'z boshqaruvi ostida bo'lgan kompaniya taqdiri u yoki bu darajada unga bog'liq bo'lgan har qanday boshqaruvchi uchun faoliyatlar yo'nalishini aniqlamasdan faoliyat ko'rsatish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Второй год резкого замедления темпов роста. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/global-economic-prospects>.
2. Гуломов С.С. Кичик бизнес ва тadbirkorlik asoslari.—Т.: 1996.—130 б.
3. <https://president.uz/uz/lists/view/5252>
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. — М.: Прогресс, 1991. С. 47
5. Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. — СПб.: Наука, 2009. С. 17.
6. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/download/489/461>
7. Аванесова Г.А., Воронкова Л.П., Маслов В.И., Фролов А.И. Туризм, гостепримство, сервис. Словарь-справочник. Под ред. Л.П.Воронковой. — М.: Аспект Пресс, 2002. — 367 с.
8. Маврина И.Н. Стратегический менеджмент: учеб.пособие / И.Н. Маврина. — Екатеринбург: УрФУ, 2014. — С. 132.
9. Гергерт Д.В. Стратегический менеджмент: учеб.-метод. пособие / Д.В. Гергерт. — Пермь: Гос. ун-т «Высшая школаэкономики». Пермский филиал, 2008. — С. 162
10. Эргашходжаева Ш.Д. Инновацион маркетинг. Дарслик. — Т.: ТДИУ, Иқтисодиёт, 2014. — 178 бет.
11. Мишин В. М., Управление качеством: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности "Менеджмент организации" (061100) — 2-е изд. перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ — ДАНА, 2008. — 463 с. ISBN 978-5-238-00857-8
12. Второй год резкого замедления темпов роста. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/global-economic-prospects>.
13. G'ulomov S.S. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari.—Т.: 1996.—130 б.
14. Котлер Ф. Основы маркетинга. — М.: Прогресс, 1991. —С. 47.
15. Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. — СПб.: Наука, 2009. —С. 17.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.